

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2026-yil 13-fevraldagi 44-sonli XDFU buyrug'iga
2-ilova



Oliy ta'lim tashkilotlari talaba-yoshlari o'rtasida "Mirzo Ulug'bek vorislari" tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom oliy ta'lim tashkilotlari talaba-yoshlari o'rtasida "Mirzo Ulug'bek vorislari" tanlovini (keyingi o'rinlarda Tanlov deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi. Shuningdek, ishtirokchilar Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyati, ilm-fanga qo'shgan hissasi to'g'risida ixtiyoriy mavzu bo'yicha maqola yozadilar.

2. Tanlovni talaba-yoshlar o'rtasida targ'ib etish va keng qamrovli ishtiroki oliy ta'lim tashkilotlarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari hamda filiallar direktor o'rinbosarlari tomonidan ta'minlanadi va muvofiqlashtiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

3. Tanlovning asosiy maqsadi – Mirzo Ulug'bekning faoliyatini o'rganish, uning ibratli hayoti va ijodini tadbiq etish, boy ilmiy merosini chuqur tahlil qilish, bizga meros bo'lib qoldirgan asarlari, g'oyalari va fidoyiligini ilmiy jihatdan chuqurroq o'rganishdan iborat.

4. Tanlovning vazifasi – ajdodlarimizni nafaqat xotirlash, balki ular boshlab bergan birlik hamda taraqqiyotni davom ettirish, shuningdek talabalarni qo'llab-quvvatlash, yuksak ma'naviyatni shakllantirish, Vatanga sadoqatli vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida talabalarning tasavvurlarini yanada boyitish, ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda munosib rag'batlantirishdan iborat.

III. Tanlovni tashkil etish tartibi, shartlari va baholash mezonlari

5. Tanlov Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (keyingi o'rinlarda – Tashkilotchi deb yuritiladi) tomonidan tashkil etiladi. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim tashkilotlarining barcha bosqichlarda tahsil olayotgan talaba-yoshlari ishtirok etadi.

6. Tanlovni o'tkazish yuzasidan oliy ta'lim tashkilotlarida hududiy ishchi guruhlar tuziladi va tanlovni tashkil etish hamda ishchi guruhlariga oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari (birinchi prorektorlari) rahbarlik qiladi, shuningdek, tanlovni yuqori saviyada tashkil etilishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

7. Tanlov **3 bosqichda** o'tkaziladi:

- 1 — hududiy oliy ta'lim tashkilotlari (*kurslar va yo'nalishlar*) bosqichi;
- 2 — respublika saralash bosqichi;
- 3 — respublika final bosqichi.

8. Tanlovning birinchi bosqichi **mart** oyida, ikkinchi bosqichi **mart-aprel** oyida, uchinchi respublika final bosqichi **aprel-may** oylari davomida o'tkaziladi. Shuningdek, tanlovning uchinchi respublika final bosqichi tashkil etiladigan joyi vazirlikning xati orqali ma'lum qilinadi. Barcha bosqichlarni o'tkazish bo'yicha vazirlikning xati oliy ta'lim tashkilotlariga 10 kun oldin ma'lum qilinadi. Respublika final bosqichi Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida o'tkaziladi.

9. Tanlov ishtirokchilari Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyati, ilm-fanga qo'shgan hissasi to'g'risida ixtiyoriy mavzu bo'yicha maqola yozadilar.

Maqolalar quyidagi tartibda bo'lishi talab etiladi:

- *Maqola materiallari elektron shaklda fayl ko'rinishida, Word 2003, 2007 formatida Times New Roman, 14 o'lcham (kegel), satrlar oralig'i 1,5 sm, sahifalar chapdan va yuqoridan 2,5 sm, pastdan va o'ngdan 2 sm qoldirilgan holda taqdim etilishi lozim.*

— *birinchi qatorda, sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi, ikkinchi qatorda muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, uchinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, to'rtinchi qatorda matn yoziladi.*

- *asosiy matn satrlar oralig'i 1,5 intervalda, satr boshi – 1 sm, satrlarni eniga to'g'rilash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish – avtomatik tarzda bo'lishi lozim.*

- *adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.*

- *manba va adabiyotga havolalar asosiy matn ichida ko'rinishda bo'lishi lozim.*

- *taqdim etilayotgan maqolalar hajmi 4-6 sahifagacha bo'lishi.*

- *maqolalar o'zbek va qoraqalpoq tillarida (lotin alifbosi grafikasida) qabul qilinadi.*

- *maqolada annotatsiya va kalit so'zlari talab etiladi.*

- *xulosa va takliflar bo'lishi.*

- *matn ilmiy-uslubiy tahrir qilingan bo'lishi shart.*

- *talablarga javob bergan va tahrir hay'ati ko'rigidan o'tgan maqolalar keyingi bosqichga tavsiya etiladi*

- *respublika final bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilarning maqolalari Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazining "Yoshlar va ilm-fan" ilmiy-ommabop, o'quv-metodik, ma'naviy-ma'rifiy jurnaliga chiqariladi.*

10. Maqolalarni respublika tashkiliy qo'mitaga yuborish vaqti va manzili vazirlikning xati orqali barcha oliy ta'lim tashkilotlariga ma'lum qilinadi.

11. Tanlov o'tkazilishi yuzasidan joriy yilning fevral oyidan boshlab oliy ta'lim tashkilotining rasmiy kanallarida e'lon berilib, hududdagi ishchi guruhlar tanlovda qatnashmoqchi bo'lgan nomzodlar ro'yxatini shakllantiradi.

12. Tanlovning 1-bosqichida Hakamlar hay'ati shakllantiriladi va yozilgan maqolalarni tekshiradi hamda 1 nafar g'olib bo'lgan ishtirokchiga keyingi bosqich uchun yo'llanma beradi. G'olib bo'lgan ishtirokchining maqolasi respublika saralash bosqichiga oliy ta'lim tashkilotining yo'llanma xati bilan birga yuboriladi.

13. Ikkinchi respublika saralash bosqichida Respublika tashkiliy qo'mita tomonidan Hakamlar hay'ati shakllantiriladi va kelib tushgan maqolalarni tekshirib eng yaxshi yozilgan 20 ta maqolani keyingi bosqichga tavsiya etadi.

14. Respublika final bosqichi Nukus shahrida (*o'flayn*) o'tkaziladi.

15. 3-respublika final bosqichida ishtirokchilar 2 ta shart asosida baholanadi.

1-shart quyidagi:

Mirzo Ulug'bekning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi;

Mirzo Ulug'bek – temuriylar davrining buyuk allomasi;

Mirzo Ulug'bekning davlat arbobi sifatidagi faoliyati mavzulari bo'yicha insho yozadilar.

16. Insholar quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- mavzuning to'laqonli ochib berilganligi – 10 ball;
- mutaffakkirning hayoti va ijodi, ilm-fanga qo'shgan hissasi qoldirgan asarlari va g'oyalari ochib berilganligi – 10 ball;
- imloviy savodxonligi, so'z boyligi va uslubiy mahorati – 10 ball;
- ishtirokchining xulosaviy fikrlari mavjudligi hamda ularni ifoda etish mahorati – 10 ball.

2-shart test ishlashlari kerak bo'ladi. Hakamlar hay'ati tomonidan shu vaqtning o'zida ishtirokchilar yozgan insholar va test savollari (*testga 20 savol beriladi va har bir savolga 1 balldan ball beriladi jami 20 daqiqa vaqt beriladi*) tekshiriladi. 2 ta shart baholari umumlashtirilib g'olib aniqlanadi.

17. Ishtirokchilar insho uchun 40 ball, test uchun 20 ball, **jami 60 ball** bilan baholanadi.

IV. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

18. Tanlovning uchinchi respublika final bosqichida ikkita shart asosida eng yuqori ball to'plagan ishtirokchilar o'zlari tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkilotining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda:

1-o'rin – 5 000 000 so'm;

2-o'rin – 4 000 000 so'm;

3-o'rin – 3 000 000 so'm miqdorda pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

V. Yakuniy qoidalar

19. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda e'lon qilinadi.

20. Respublika tashkiliy qo'mita tomonidan tanlov nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

21. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar hamda boshqa intellektual mulk huquqlarining buzilishiga shaxsan maqola muallifi javobgar hisoblanadi.

22. Tanlovning final bosqichida mas'ul xodimlar va ishtirokchi talabalarning xizmat safari bilan bog'liq sarf-xarajatlar belgilangan tartibda xodimning asosiy ish hamda talabaning o'qish joyidan qoplanadi.